

ARAB TILIDA MAQOLLARNING SHARHI

Roziqova Sayyora Habibullayevna

*DTPI Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasи
katta o'qituvchisi*

Shaniyeva Jasmina Musurmon qizi

*DTPI filologiya filologiya va tillarni o'qitish:
O'zbek tili yo'nalishi 3-kurs talabasi*

Boymirzayev Muhammad Mustafaqul o'g'li

*DTPI Filologiya va tillarni o'qitish: O'zbek tili yo'nalishi
3-kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada maqollar arab tilidan tarjima qilinib, leksik tahlil qilindi .Maqollarning izohi keltirilgan.

Kalit so'zlar: Maqollar,leksik tahlil,izoh,tarjima.

Annotation: In this article, proverbs are translated from Arabic and lexically analyzed. An explanation of the proverbs is provided.

Keywords: Proverbs, lexical analysis, explanation, translation.

Hozirgi o'zbek tilining lug'at tarkibi bu tilning uzoq yillar mobaynida butun taraqqiyoti davomida shakllangan hodisadir. Shu sababli undagi mavjud so'zlarining paydo bo'lish, davri va kelib chiqish manbai (asosi) ham har xildir. Umuman, har qanday til o'z lug'at tarkibi va grammatic qurilishiga ega bo'ladi. Har bir til, asosan o'z lug'at boyligi va grammatic qurilishi asosida o'z taraqqiyot qonunlari bo'yicha shakllanib, o'sib, takomillashib boradi. Lekin xalqlar o'rtasidagi uzoq tarixiy davrlar mobaynida davom etadigan turli iqtisodiy, siyosiy,

madaniy aloqalar bu xalqlarning tillariga ham, lug'at tarkibiga ham, shubhasiz, o'z ta'sirini ko'rsatadi. Natijada, aslida bir tilga xos bo'lgan fonetik, leksik va boshqa bir qator elementlar ikkinchi bir tilga o'tib, unga o'zlashib ketadi. Bunday o'zaro ta'sir qilish boshqa qatlamlardan ko'ra, ayniqsa, tilning leksik qatlamida kuchliroq bo'ladi va aniqroq namoyon bo'ladi.

O'zbek xalqi ham, shu qatorda, o'z rivojlanish tarixining turli davrlarida va bosqichlarida boshqa ko'plab xalqlar bilan o'zaro turli iqtisodiy, madaniy va siyosiy aloqada bo'lgan, hamda bu xalqlarning tili, shubhasiz, o'zbek tiliga ham ma'lum darajada o'z ta'sirini o'tkazmay qolmagan. Xususan, boshqa tillar leksikasidan o'zbek tili leksikasiga juda ko'plab so'zlar o'zlashganligini shu ta'sir orqali izohlashimiz mumkin. Natijada o'zbek tili lug'at tarkibida shu tilning o'ziga xos leksik qatlam bilan bir qatorda yana o'zlashgan leksik qatlam ham yuzaga kelgan. O'zbek tilining lug'at boyligi so'zlar va iboralardan iborat. Uning bu boyligi hamma uchun umumiyl bo'lib, hamma tomonidan biday qo'llanilishi mumkin. Bu boylik

tilning tarixiy taraqqiyoti davomida to‘plangan. Bu esa o‘z navbatida, tilning tarixiy taraqqiyoti hisobiga ham, shu bilan birga boshqa turli xalqlar bilan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy aloqalari davrida o‘zlashtirgan leksik birlklari hisobiga ham amalga oshgan. Ana shu tarixiy jarayonlar nuqtayi nazaridan qaralganda, hozirgi o‘zbek tili lug‘at boyligida ikkita yirik qatlam : o‘z va o‘zlashgan qatlam borligi ma’lum bo‘ladi.

O‘z qatlam deganda azaldan aslan faqatgina shu tilniki bo‘lgan leksemalar va shular asosidagi yasalishlar, shuningdek, o‘z affiks bilan boshqa til leksemalaridan yasalishlar tushuniladi. O‘z qatlamga oid so‘zlarning tilda mavjudligi juda qadimga borib taqaladi. U Oltoy oilasidagi tilda so‘zlashuvchi xalqlar ham ajralib ketishga ulgurmay, tillari hali yagona bo‘lgan davrda yuzaga kelishni boshlagan.

Maqol — xalq og‘zaki ijodi janri; qisqa va lo‘nda, obrazli va obrazsiz, grammatik va mantiqiy tugallangan ma’noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli. Muayyan aniq shaklga ega. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg‘ulari, ijobiy fazilatlari mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan.

Maqol – sifatli fikr ifodasi bo‘lib, X.R.P. Diksonning fikriga ko‘ra “arablar maqollarni keltirganlarida, tarixni gapirib berayotganlardek huzurlanadilar”. Adabiyotshunoslar maqollarni masal, matal, mitala, misl, hikma, nodira, qavl, va’z kabi bir qator terminlar bilan ataydilar va maqollarni: 1) islomgacha va islomning ilk davridagi qadimiy maqollar, 2) aralash yoki yangi va 3) zamonaviy maqollar guruhiga ajratadilar. Arab maqollari boshqa xalqning hikmatlarini ham qamrab olganliklari bois, qiyosiy o‘rganish ob’ekti bo‘lishlari mumkin. Arab maqollarini tadqiq etish VIII asrdan boshlangan. Arab adibi Ubayd Jurjumiylari (VIII asr) Sahar ibn Dabiy, fors adibi Abu Fadl Maydoniy kabi bir qator olimlar kabi Mahmud Zamashshariy ham “al-Mustaqso min amsali–arab” nomli kitobini tuzgan. Quyida arablarga oid maqollarnin bir qanchasini keltirib, ularni izohlab o‘tamiz.

الصديق وقت الضيق - *Muhtoj do'st, albatta, do'stdir.*

“*Muhtoj do'st, albatta, do'stdir*” degan maqol do'stlikning chinakam mohiyatini anglatadi. Haqiqiy do'st faqat yengil kunda emas, balki qiyin vaziyatlarda ham yonimizda bo‘ladi. Muhtoj bo‘lgan paytda yordamga shoshilgan inson do'stlikka sodiq ekanini isbotlaydi.

بصل يوم عسل - *Bir kun asal, bir kun piyozi.*

“*Bir kun asal, bir kun piyozi*” maqoli hayotning turfa ko‘rinishlarini tasvirlaydi. Hayotda har doim shirinlik va zavq bo‘lmaydi, gohida achchiq va qiyinchilik ham uchraydi. O‘zbek tilida ham bu maqolning variant mavud. “*Oyning o‘n beshi yorug’, o‘n beshi esa qorong‘i*” ushbu maqollarda hayotning har doim ham bir xil bo‘lmasligi, baland - pastiklardan iboratligi anglashiladi.

حلاة و ثمرة الصبر - *Sabr achchiq, mevasi shirindir.*

"*Sabr achchiq, mevasi shirin*" maqoli sabr-toqat va uning natijasini go'zal tarzda ifodalaydi. Qiyin vaziyatlarga bardosh berish va sabr qilish oson emas, u ko'pincha "achchiq" yoki mashaqqatli bo'ladi. Ammo, bu jarayonning oxirida erishilgan natija, ya'ni "meva", shirin va qoniqarli bo'ladi.

الصراحة راحة - *Halollik yengillikdir*.

"*Halollik yengillikdir*" degan hikmatli so'z insonning pokiza va to'g'ri yo'lda yurishining naqadar ahamiyatli ekanini anglatadi. Halol bo'lgan inson o'z hayotini og'irlashtiradigan yolg'on, aldov yoki nohaqlikdan yiroq bo'ladi. Chunki halollik vijdon xotirjamligini beradi, bu esa inson uchun eng katta yengillikdir.

-الذي يأكل على ضرسه ينفع نفسه *Tishi bilan ovqatlangan kishi o'ziga foyda keltiradi*.

"*Tishi bilan ovqatlangan kishi o'ziga foyda keltiradi*" maqoli insonning mehnati va o'z kuchi bilan hayotda erishgan narsalari haqiqiy foyda keltirishi haqida so'z yuritadi. O'z mehnati bilan topilgan rizq barokatli bo'lib, u insonni mustaqil va o'ziga ishongan qiladi.

رحلة الألف ميل تبدأ بخطوة-Ko'z aqli, qo'l qisqa.

"*Ko'z aqli, qo'l qisqa*" maqoli inson istaklari va imkoniyatlari o'rtasidagi tafovutni anglatadi. Ko'z ko'p narsani xohlaydi, ya'ni inson orzulari va maqsadlari cheksiz bo'lishi mumkin. Ammo, qo'l qisqa bo'lishi, ya'ni imkoniyatlarning cheklanganligi sababli, barchasiga erishish qiyin bo'lishi mumkin.

الدرارهم مراهم-*Dirhamlar malhamdir*.

"*Dirhamlar malhamdir*" maqoli pulning kuchi va ahamiyatini ifodalaydi. Dirham (pul) ko'pincha inson hayotidagi muammolarni hal qilishda, qiyinchiliklarni yengishda "malham", ya'ni yechim bo'lib xizmat qiladi. Pul orqali inson sog'liqni tiklashi, ehtiyojlarini qondirishi yoki muammolarni bartaraf etishi mumkin.

أكل الجمل بما حمل-Tuya ko 'targanini yebdi.

"*Tuya ko 'targanini yebdi*" maqoli insonning imkoniyatlariga qarab harakat qilishi va o'z kuchiga yarasha sarf-xarajat qilishi kerakligini bildiradi. Tuya kuchli hayvon sifatida ko'p yuk ko'taradi, lekin bu yukning o'ziga foydali qismini iste'mol qiladi.

Shunday qilib, biz o'zbek tili leksikasining ko'pgina qismini tashkil etgan arabizm - arab tilidan o'zlashgan so'zlarning kirib kelish jarayoni, uning o'zlashishi, singishi, ma'nolarining arab tilida qanday bo'lsa shunday ma'noda qo'llanilayotganligi yoki birlamchi ma'nosini yo'qotib, boshqa ma'noda, ba'zan, asliga zid ma'no anglatadigan shakllari haqida tasavvurga ega bo'ldik. Zero, arab tili mutaxassis bo'la turib, o'zining ona tilidagi o'zlashgan arab so'zlarining kirib kelish tarixini bilmaslik haqiqiy arab tili mutaxassisiga to'g'ri kelmaydi.

Adabiyotlar:

1. Bu haqda qarang: Firdavsiy. Shohnoma.1 tom. Nauchno-kriticheskiy tekst, raznochteniya, primechaniya i prilozheniya M.N.Osmanova.M.,1991.5s.
2. P.Shamsiyev. O'zbek matnshunosligiga oid tadqiqotlar.Toshkent.1986. 27-bet.
3. Alisher Navoiy. Sab'ai sayèr. Ilmiy-kritik tekst. Nashrga tayèrllovchi P.Shamsiyev.Toshkent.1956. 7-bet
4. Bu haqda qarang:Rahmon V. Mumtoz so'z sehri.T., 2015.
5. Hayitmetov A. Matnshunoslik muaammolari. Sharq yulduzi. 1982.№3 169
6. Nabiyeva, N. (2024). O 'ZBEK MUMTOZ ŞOYRALARI IJODIDA ISHQ MAVZUSI TALQINLARI. TAMADDUN NURI CÜRNELI, 8(59), 26-28.
7. Nabiyeva, N. (2022). O 'ZBEK TILI LEKSIKASINING TARIXIY BOSQICHLARI. Bilim ve yenilik, 1(B6), 858-864.